

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

XOJIYEV KUCHKOR MAMADIYOROVICH

**YER HISOBINI YURITISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10-Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Хожиёв Кучкор Мамадиёрович

Yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida)..... 3

Хожиёв Кучкор Мамадиёрович

Совершенствование методологии ведения учета земли (на примере Ташкентской области) 21

Хожиёв Кучкор Мамадиёрович

Improving the methodology of land accounting (on the example of the Tashkent region) 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

XOJIYEV KUCHKOR MAMADIYOROVICH

**YER HISOBINI YURITISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10-Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Qx868 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi «O'zdavyerloyiha» davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babajanov Allabergan Ruzimovich
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qurvantoyev Raxmontoy
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Xo'jakeldiyev Komil Nosirovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 20 23 yil « 30 » 08 soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, ye-mail: tuag_info@edu.uz

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ishi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (549157 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 15 » 08 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 15 » 08 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).



G.R. Xolmurodova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

A.A. Iminov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d., professor

U. Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisining jon boshiga haydaladigan ekin yerlar 1980-yilga nisbatan 2018-yilga kelib 0,10 gektarga qisqarib, 0,20 gektarga to'g'ri kelgan. Mamlakatimizda ham so'nggi 20 yilda aholi jon boshiga nisbatan sug'oriladigan yerlar maydoni 0,23 gektardan 0,12 gektargacha kamaygan¹. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi bo'lganligi sababli ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek, yer maydonlarining miqdoriy hisobini yuritishni yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Shu jihatdan yer resurslaridan maqsadiga ko'ra oqilona va samarali foydalanishda, yer munosabatlarini tartibga solishda yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Jahonda yer hisobini yuritish, xususan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning miqdoriy hisobini yuritish usullarini mavjud innovatsion yondoshuvlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining miqdoriy hisobini yuritish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yondoshuvlar va mexanizmlarni qo'llash negizida yer hisobining haqqoniyligi hamda aniqligini aks ettiruvchi tizim yaratishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, yer hisobining haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlashga imkon beruvchi yer fondi toifalari va yer turlari bo'yicha qabul qilingan yer hisobi hujjatlarida to'g'ri talqin qilish, yer hisobining har yillik natijasi bo'yicha tuziladigan yer balansini va uning hisobotlarini tubdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda yer munosabatlarini takomillashtirish, yer tuzish, yer kadastr va yer monitoringini bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos ravishda tashkil etish bo'yicha, jumladan, agrar sohada yerlardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ma'lum ijobiy natijalarga erishilmoqda. Bularning barchasi, birinchi galda, yer hisobini mukammal, haqqoniy yuritilishi bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «...yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilmfan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish bugungi kundagi muhim ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5742-son Farmoni² bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligida yer

¹ <https://daryo.uz/k/2022/04/12/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5742-son Farmoni.

va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi» hamda 2020-yil 7-sentabrdagi «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6061-son Farmoni³ hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, yer maydonlaridan foydalanishni oqilona va samarali tashkil etish, ularning miqdoriy hisobini to'liq, haqqoniy va shaffof yuritilishini ta'minlashni talab etadi. Yer maydonlarining miqdoriy hisobini va umuman, yer hisobini yuritish bilan bog'liq qator xorijiy va yurtimiz olimlari hamda amaliyotchilari shug'ullanib kelishgan. Yer maydonlaridan foydalanishni tashkil etish va yer kadastr muammolari bilan xorijiy olimlardan С.Н.Волков, В.В.Вершинин, И.В.Дегтярев, А.А.Варламов, Л.П.Сапожников va boshqalar shug'ullanishgan. Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda ham qator olimlar, jumladan, G'.A.Tolipov, S.Avezbayev, R.A.Turayev, Q.Raxmonov, A.R.Babajanov, A.J.G'ofirov, H.X.Tashbayevalar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ma'lum ilmiy natijalarga erishilgan. Ammo bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda yer fondi toifalaridagi yerlardan foydalanishning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ma'muriy-hududiy birliklar chegaralari bo'yicha yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6061-son Farmonida belgilab berilgan yer maydonlarining aniq hisobini yuritishni tashkil etish va ta'minlash borasida tegishli vazifalarga muvofiq, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi «Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 299-sonli qarori talablari asosida «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti tomonidan 2018-2020-yillarda bajarilgan yer tuzish ilmiy loyiha ishlarining tahlili va natijalari asosida amalga oshirilgan (2018-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi yer hisobini yuritish bo'yicha mavjud holatlarni o'rganish, tahlil qilish, baholash asosida uni yuritish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6061-son Farmoni.

Tadqiqotning vazifalari:

yer fondi toifalaridan foydalanish maqsadi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni maqbullashtirish, yer turlariga huquqiy maqom berish orqali ularning tavsiflanishini bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

ma'muriy-hududiy birliklar kesimida yer fondi toifalari, yer turlari, yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer hisobini yuritish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarni qaytadan foydalanishga kiritish hamda yangidan o'zlashtirilgan yerlarni foydalanishga qabul qilish mexanizmini ishlab chiqish;

yer xatlovi natijalarini yer balansiga olish tizimini takomillashtirish, shuningdek, tuman (shahar) yer balansi shakllarini hamda ulardagi yer turlarining nomlanishini tartibga solish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti. Toshkent viloyati tuman (shahar)larining ma'muriy chegarasidagi yerdan foydalanuvchilarning (barcha huquq turlari bo'yicha) yer fondi toifalari va turlari bo'yicha mavjud yer maydonlari tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Yerdan foydalanuvchilarning (barcha huquq turlari bo'yicha) yer fondi toifalari va yer turlari bo'yicha yer hisobini yuritish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik, qiyosiy tahlil va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer fondi toifalaridan foydalanish maqsadi va xususiyatlariga ko'ra ularni tarkibiy jihatdan maqbullashtirish, shuningdek, ilk bor, yer fondi toifalarining tarkibiy qismini tashkil etuvchi yer turlariga huquqiy maqom berish bo'yicha yer turlarining tavsiflanishi asoslangan;

butunjahon koordinatalar tizimi (WGS-84) ga bog'lagan holda tumanlarning ma'muriy chegarasidagi tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq (ovul)lar hududlari bo'yicha yer hisobini yuritish asoslangan;

qaytadan yoki yangidan o'zlashtirilgan yerlarni foydalanishga qabul qilish jarayonida yer turlarini transformatsiya qilish mexanizmi ishlab chiqilgan;

yer hisobini yuritishda muhim ahamiyat kasb etuvchi yer maydonlarini xatlovdan o'tkazish natijalarini yer balansiga olishning tizimi yaratilgan, shuningdek, yer hisobini yuritish bilan bog'liq amaldagi yer balansi tarkibidagi shakllarni takomillashtirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Respublika yer fondi toifalarini maqbullashtirish hisobiga yer fondi toifalari sonini amaldagi 8 tadan 6 taga keltirish bo'yicha, shuningdek, yer turlariga huquqiy maqom berish yuzasidan yer fondi toifalarining tarkibini tashkil etuvchi 11 ta yer turlarining (ekin yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar bilan band bo'lgan, pichanzorlar, yaylovlar, tomorqa, o'rmonlar bilan band bo'lgan, suv ostidagi, yo'l ostidagi, umumiy foydalanishdagi ko'chalar va maydonlar ostidagi, qurilishlar ostidagi va boshqa yerlar) tavsiflanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

ma'muriy-hududiy birliklar (tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq (ovul)lar) kesimida ularning chegaralarini butunjahon koordinatalar tizimi (WGS-84)ga bog'lagan holda yer hisobini yuritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qishloq xo'jaligi foydalanishiga qaytadan kiritilayotgan hamda yangidan o'zlashtirilayotgan yerlarni qabul qilishning 5-bosqichli tizimi ishlab chiqilgan;

yer xatlovi natijalarini yer balansiga olishning «Xatlov natijasi», «Ishchi guruh muhokamasi», «Yerdan foydalanuvchilar bo'yicha xulosa qilish», «O'zgarishlarni bayonnoma bilan tasdiqlash», «Yer balansiga qabul qilish» ketma-ketligi mexanizmi ishlab chiqilgan;

yer hisobini yuritish bilan bog'liq amaldagi shakllardan 6 tasi takomillashtirilgan va 2 tasi (mulk sifatida xususiylashtirilgan hamda dehqon xo'jaliklari yer maydonlarini hisobga olish bo'yicha) yangidan shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishonchliligi unda Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi va uning Toshkent viloyati boshqarmasi, shuningdek, Toshkent viloyati Qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlaridan, shuningdek, «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti va uning Toshkent viloyati bo'linmasining arxiv materiallaridan hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanilganligi, ularni qayta ishlashda umumiy qabul qilingan tadqiqotlar usullarining qo'llanilganligi va olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari nufuzli Respublika va xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, OAK tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatier fondi toifalaridan foydalanish maqsadiga ko'ra ularni maqbullashtirish, shuningdek, ilk bor, yer fondi toifalarining yer turlariga huquqiy maqom berish bo'yicha ularning tavsiflanishi asoslanganligi, butunjahon koordinatalar tizimi (WGS-84) ga bog'lagan holda tumanlarning ma'muriy chegarasidagi tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq (ovul)lar hududlari bo'yicha yer hisobini yuritish asoslanganligi, qaytadan yoki yangidan o'zlashtirilgan yerlarni foydalanishga qabul qilish jarayonida yer turlarini transformatsiya qilish mexanizmi ishlab chiqilganligi, yer xatlovi natijalarini yer balansiga olishning tizimi yaratilganligi, shuningdek, yer hisobini yuritish bilan bog'liq amaldagi yer balansi tarkibidagi shakllarni takomillashtirish asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, yer fondi toifalarini maqbullashtirish hisobiga yer fondi toifalari sonini amaldagi 8 tadan 6 taga keltirish, shuningdek, yer turlariga huquqiy maqom berish yuzasidan yer fondi toifalarining tarkibini tashkil etuvchi 11 ta yer turlarining tavsiflanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan, ma'muriy-hududiy birliklar (tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq (ovul)lar) kesimida ularning chegaralarini butunjahon

koordinatalar tizimiga bog‘lagan holda yer hisobini yuritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, qishloq xo‘jaligi foydalanishiga qaytadan kiritilayotgan hamda yangidan o‘zlashtirilayotgan yerlarni qabul qilishning tizimi ishlab chiqilgan, yer xatlovi natijalarini yer balansiga olishning ketma-ketligi mexanizmi ishlab chiqilgan, amaldagi yer balansi shakllaridan 6 tasi takomillashtirilgan va 2 tasi yangidan shakllantirilgan bo‘lib, ular yer hisobining aniq va shaffof yuritilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar natijasida yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida) bo‘yicha olingan natijalar asosida:

qishloq xo‘jaligi foydalanishidan chiqib ketgan yerlarni foydalanishga qabul qilish Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasiga muvofiq qabul qilinadigan viloyat hokimining tegishli qarori asosida amalga oshirish tizimi joriy qilingan hamda qaror qabul qilingandan so‘ng qayta foydalanishga kiritilgan yerlarning hisobini yer turlari bo‘yicha yuritish ishlariga kirishilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 04/28-28-9956-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, viloyat bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning, jumladan, sug‘oriladigan ekin yerlarining aniq hisobini yuritish imkoni vujudga kelgan va sug‘oriladigan yerlar muhofazasi ta‘minlangan;

qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirishda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasi sug‘oriladigan, shartli sug‘oriladigan va lalmikor yerlarga guruhlanib, ekinlarning hosildorligini belgilash ishlariga kirishilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 30-dekabrda 04/28-28-9956-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sug‘oriladigan, shartli sug‘oriladigan va lalmikor yerlarga tabaqalanishi bo‘yicha yer hisobining shakllanishiga, shuningdek, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatini hamda yer solig‘i bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish imkoni yaratilgan;

yer fondining «Zaxira yerlar» toifasi O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi yangi tahriri loyihasi 6-moddasidan chiqarilgan, shuningdek, «Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar» toifasi bilan «Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar» toifasi birlashtirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining 2022-yil 26-dekabrda 10/2-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, yer fondi toifalari soni amaldagi 8 tadan 6 taga keltirilib, yer fondi toifalari bo‘yicha yer balansining soddalashtirilishiga olib keladi;

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi yangi tahriri loyihasi 8-moddasida yer turlariga huquqiy maqom berilib, ularning nomlanishi ta‘riflangan. Shuningdek, Yer kodeksining yangi tahriri loyihasi 9-moddasida yer turlarini bir turdan boshqasiga o‘tkazish normasi yoritib berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining 2022-yil 26-dekabrda 10/2-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, yer turlariga maqom berish va tavsiflanishi bo‘yicha huquqiy asos yaratilgan;

yangidan o'zlashtirilgan yerlar viloyat hokimining tegishli qarori asosida foydalanishga qabul qilinmoqda va mazkur qarorga muvofiq bundan buyon yangidan o'zlashtirilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning tegishli turi hisobga olinib borilmoqda (Davlat kadastrlar palatasining 2023-yil 12-yanvardagi 01-09/01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat bo'yicha yangidan o'zlashtirilgan yerlarning tegishli turi bo'yicha yer hisobini aniq va haqqoniy yuritish imkoni yaratilgan;

tuman (shahar) yer balansi tarkibiga kiradigan yer balansi shakllarida «uzumzorlar» yer turi qayta ishlangan, noqishloq ehtiyojlari uchun yer ajratish bilan bog'liq 14 iva 18-shakllar maqbullashtirilib, yagona bitta shakl ko'rinishga keltirilgan, dehqon xo'jaliklarining hamda xususiylashtirilgan yer maydonlarini hisobga olish bilan bog'liq yangi shakllar asosida yer hisobini yuritishga kirishilgan. «Bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari» yer turi balansi shakllaridan chiqarilgan va ular yerdan foydalanuvchi sifatida qabul qilingan (Davlat kadastrlar palatasining 2023-yil 12-yanvardagi 01-09/01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yer balansi shakllari takomillashtirilgan, yer turlarining nomlanishi tartibga keltirilgan, dehqon xo'jaliklarining yerlarini hamda xususiylashtirilgan yer maydonlarini hisobga olish ta'minlangan;

yer maydonlarida o'tkazilgan xatlov jarayonida aniqlangan o'zgarishlar, jumladan, yer qonunbuzilish holatlari bartaraf etilgandan keyin xatlov natijalarini yer balansiga olishning tizimi joriy etilgan. (Davlat kadastrlar palatasining 2023-yil 12-yanvardagi 01-09/01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tuman (shahar)lar bo'yicha o'tkazilgan xatlov natijalarini yer balansiga qabul qilish mexanizmi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika miq'yosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqotchi tomonidan jami 4 ta ish, shundan, 2 ta yo'riqnoma, 2 ta ilmiy-uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni

rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etish ro‘yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yer hisobini yuritishning nazariy va uslubiy masalalari**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo‘lingan bo‘lib, birinchi qismi «*1.1-§.-Iqtisodiyot tarmoqlaridagi hisob-kitoblar tizimida yer hisobini yuritish xususiyatlari*» deb nomlangan bo‘lib, unda mavjud yer maydonlari to‘liq hisobga olinishi hamda ular kartografik hujjatlarda sifatli aks ettirilishi yoritilgan. Shuningdek, yer hisobi natijalari iqtisodiyotning turli sohalarida yerga, undan foydalanishga oid tadbirlarni tuzishda, birinchi navbatda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan yer maydonlari ehtiyojini aniqlashda foydalanishi asoslangan.

Ikkinchi qismi «*1.2-§.-Yer hisobi tarkibida uning miqdoriy hisobini yuritish texnologiyasi*» deb nomlanib, yer uchastkalarini bo‘yicha uning miqdorini hisobga olish yer uchastkalarining o‘lchami, ularning qiymati va talab qilinadigan o‘lchash aniqligiga qarab, geodezik va (yoki) kartometrik usullarda amalga oshirilishi, yer maydonlarining miqdorini va sifatini hisobga olish jarayonining yagona tizimini ifodalovchi asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bo‘linishi asoslangan.

Uchinchi qismi «*1.3-§.-Yer hisobini yuritish bo‘yicha xorij tajribasi*» deb nomlanib, yer hisobini to‘g‘ri tashkil etishning muhim sharti, uni o‘z vaqtida va uzluksiz yuritish yer hisobi ma‘lumotlarini davr talabi darajasida tutishga imkon berishi ko‘rsatib berilgan hamda yer maydonlarida ro‘y beradigan miqdoriy o‘zgarishlarni tizimli tarzda hisob qilib borishning Belorussiya, Rossiya, Ukraina tajribalari, shuningdek, rivojlangan davlatlardan AQSH tajribasi o‘rganilgan.

Tortinchi qismi «*1.4-§.-Yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish yo‘nalishlari*» deb nomlanib, yer hisobini yuritishda har bir ma‘muriy-hududiy birlik kesimida yer hisobini yuritish bo‘yicha mavjud uslubiyatni takomillashtirishning mexanizmlari taklif qilingan va mazkur mexanizmlar yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Toshkent viloyati bo‘yicha yer hisobini yuritishning mavjud holatlarini baholash**» deb nomlangan ikkinchi bobida Toshkent viloyati yer fondining miqdoriy hisobini yuritishning amaldagi holati, yer hisobini yuritish natijasida tuman (shahar)ning yer balansini tuzish tartiblari tahlili, yer hisobi natijalari aniqligini oshirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi huquqiy, tabiiy, texnik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar yoritib berilgan.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasi viloyat yer fondining asosiy toifasi ekanligi, bu toifa qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega ekanligi sababli mazkur toifa yer turlaridagi o‘zgarishlarni ham ko‘rsatib o‘tish joizdir. Umuman, keyingi 18-yil (2004-2022-yy.) davomida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasi tarkibida katta o‘zgarishlar yuz bergan. Buni quyidagi, 1-jadval ma‘lumotlari yana bir karra isbotlaydi.

**Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidagi
yer turlarining viloyat bo‘yicha o‘zgarish sur‘atlari***


(gektar hisobida)

T/r	Yer turlari	2004-yil 1-yanvar holatiga		2022-yil 1-yanvar holatiga		Farqi, +/- (1.01.2004-yilga nisbatan)	
		umumiy yer maydoni	shundan, sug‘orila- digan	umumiy yer maydoni	shundan, sug‘orila- digan	umumiy yer maydoni	shundan, sug‘orila- digan
1	Ekin yerlar	327228	292309	318100	287761	-9128	-4548
2	Jami ko‘p yillik daraxtzorlar:	33753	29039	53232	43873	19479	14834
	-bog‘lar	18671	15017	34485	29090	15814	14073
	-tokzorlar	10209	9162	14153	10596	3944	1434
	-tutzorlar	3506	3506	3909	3909	403	403
	-ko‘chatzorlar	1367	1354	682	273	-685	-1081
3	Bo‘z yerlar	725	305	671	385	-54	80
4	Pichanzorlar	7180	951	6671	951	-509	
5	Yaylovlar	191317	521	201303	448	9986	-73
	Jami qishloq xo‘jalik yerlari:	560203	323125	579977	333417	19774	10292

* Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasidan olingan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadvalda aks etgan ma‘lumotlar asosida qayd etish mumkinki, o‘tgan 18 yil davomida jami ekin yerlar 9128 gektarga, shundan sug‘oriladigan ekin yerlar 4548 gektarga, pichanzorlar 509 gektarga, bo‘z yerlar 54 gektarga kamaygan, jami ko‘p yillik daraxtzorlar 19479 gektarga, shu jumladan sug‘oriladigani 14834 gektarga, yaylovlar 9986 gektarga ko‘paygan.


Nazariy manbalarni o‘rganish, yer hisobini yuritish bo‘yicha mavjud ishlanmalar bilan tanishish, ularni tahlil qilish bunday ishlar natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan qator omillar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Bunday omillarga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm).



1-rasm. **Yer hisobini yuritishning natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.**

Xususan, meliorativ qurilish holatidagi yerlar mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, asosan sug‘oriladigan ekin yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun tegishli maydonlarning qurilish davriga meliorativ qurilish ishlarini olib borish hamda ushbu maydonlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirmaslik maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlarining qaroriga asosan chiqarilib kelingan.


Meliorativ qurilish holatidagi yerlarni alohida yer turi sifatida qaralishi yer hisobini yuritishning natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda (2-rasm a.b).



2-rasm. Bo'ka tumani Parkent hududi (massivi) 7052-konturning joylashuvi.

Mazkur rasmlar bo'yicha 7052-kontur 2018-yilgi xarita (a) bo'yicha meliorativ qurilish holatidagi yerlardan iboratligini, 2022-yilgi kosmik suratda esa ekin yeri (b) sifatida foydalanilayotganligining guvohi bo'lasiz.

Bunday holatlarni bo'z yerlar, yaylov yerlarida ham uchratish mumkin. Masalan, ayrim holatlarda qishloq xo'jaligi foydalanishidan chiqib ketgan ekin yerlarni ham bo'z yerlar deb hisobga olish holatlari sodir etilgan. Bo'z yerlar yer balanslarida aks ettirilib kelinmoqda, lekin yerga oid normativ-huquqiy hujjatlarda bo'z yerlarga aniq tushuncha berilmagan. Bo'z yerlar deganda muntazam ekin ekilib kelingan, biroq keyingi bir yil va undan ortiq davrda foydalanilmay qolib ketgan yoki foydalanishdan chiqib ketgan ekin yerlardan iborat degan tushuncha mavjud (3-rasm a.b).




3-rasm. Quyichirchiq tumani Abay hududi (massivi) 4269-konturning joylashuvi.

Mazkur rasmlarda 4269-kontur (a) 2002-2006 -yillarda ekin yerida turganligi va sholi ekilib kelinganligi hamda 2018-yil xatlov natijalari bo'yicha yaratilgan xaritada (b) esa bo'z yerlar ekanganligi aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning «**Yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish – ularning miqdoriy hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishning muhim yo‘nalishi sifatida, xususan, ma‘muriy-hududiy birliklarning quyi turkumini tashkil etuvchi - tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq va ovullar hududi bo‘yicha yer maydonlari xatlovdan o‘tkazilmaganligi yer hisobini yuritishga bo‘lgan ta’siri asoslantirilgan, shuningdek, yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishning to‘rta yo‘nalishlari yoritilgan hamda yer hisobini yuritish aniqligini oshirishning samaradorligi asoslantirib berilgan.

Olib borilgan o‘rganish va tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bizning nazarimizda, ma‘muriy-hududiy birliklar bo‘yicha yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari deb quyidagi yo‘nalishlarni belgilash maqsadga muvofiq (4-rasm):



4-rasm. **Yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari.**

Amaldagi yer fondi toifalarini foydalanish xususiyatiga ko‘ra 8 tadan 6 taga keltirish taklif etiladi va yer fondi toifalari quyida tarkibda shakllantirilmoqda:

- 1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar;
- 2) aholi punktlarining (shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari;
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- 5) o‘rmon fondi yerlari;
- 6) suv fondi yerlari.

Yer turlariga huquqiy maqom berilishi yer balansini tuzishda, shuningdek, uning yer turlari bo'yicha aniqligini oshirishda muhim rol o'ynashini inobatga olib yer fondi toifalarining yer turlarini quyidagicha tavsiflanishi taklif etiladi:

ekin yerlar – qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanadigan yerlar, shuningdek, yopiq (issiqxonalar va oranjereyalar) maydonlardagi yerlar;

ko'p yillik daraxtzorlar bilan band bo'lgan yerlar – hosil (mahsulot) olish uchun barpo etilgan bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, mevali daraxtlar ko'chatzorlari va boshqa daraxtzor hamda mevali butazorlar bilan band bo'lgan yerlar;

pichanzorlar – tabiiy yog'ingarchiliklar hisobiga, shuningdek, oqar suv bilan ta'minlangan hududlarda pichan o'rish imkoniyati bor bo'lgan tabiiy va sun'iy o'tloqlar;

yaylovlar – chorva mollarini o'tlatish (boqish) uchun yaroqli bo'lgan, tabiiy holatda o'suvchi ko'p yillik o'tlar va butalar bilan qoplangan yerlar;

tomorqa yerlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini erkin tasarruf qilish va oila ehtiyojlari uchun yetishtirish maqsadida oila a'zolaridan biriga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ajratilgan (kimoshdi savdolarida sotib olingan), yakka tartibdagi uy-joy qurish va uy-joyini obodonlashtirish uchun, bundan tashqari daladan hamda aholi yashash punktlari hududidan shaxsiy yordamchi xo'jaligini kengaytirish uchun berilgan yer uchastkalari;

o'rmonlar bilan band bo'lgan yerlar – ekologik, estetik va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun barpo etilgan hamda tabiiy daraxtzorlar, shuningdek, butalar bilan band bo'lgan yerlar;

suv ostidagi yerlar – ko'llar, suv omborlari, suv havzalari, daryolar, irmoqlar, soylar, jilg'alar, buloqlar, kanallar, ariqlar, ochiq zovurlar ostidagi, shuningdek, ichimlik suvi va boshqa suv havzalari yerlari;

yo'l ostidagi yerlari – avtomobil va temir yo'llar, dala yo'llari, so'qmoqlar, shuningdek, chorva mollarini haydab o'tish yo'llari;

umumiy foydalanishdagi ko'chalar va maydonlar ostidagi yerlar – ko'chalar, shoxko'chalar, maydonlar, tor qo'chalar, piyodalar yo'llari, sayilgohlar va suv bo'yidagi ko'chalar ostidagi yerlar;


qurilish ostidagi yerlar – bino va inshootlar bilan band bo'lgan yerlar;

boshqa yerlar – yuqorida ko'rsatilgan yer turlariga kirmagan, qishloq ho'jaligi va boshqa maqsadlarda foydalanilmayotgan yerlar.

Ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralariga zamonaviy asboblarning yordamida zaruriy aniqlik kiritish esa o'z navbatida yer balansining haqqoniyligini ta'minlaydi. Xususan, birgina Bekobod tumanining amaldagi ma'muriy-hududiy chegarasi butunjahon koordinatalar tizimiga (WGS-84) bog'lanib zamonaviy asboblarning yordamida qayta o'rganib (o'lchab) chiqilganda yer balansiga nisbatan tumanning umumiy maydoni 165 gektarga (5-rasm) farq qilayotgani amaldagi barcha tuman va shaharlarning ma'muriy-hududiy chegaralarini butunjahon koordinatalar tizimiga bog'lab qayta aniqlik kiritishni talab etmoqda.

birliklari – viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iboratligi»ni ko‘rsatib o‘tilganligi mavjud tumanlarning ma‘muriy chegarasi doirasidagi tumanga bo‘ysunuvchi shahar, shaharchalar, qishloq va ovullar hududlarining chegaralari o‘rnatilgan tartibda belgilanishi uchun huquqiy asos ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Buning isbotini Bekobod tumani misolida ko‘rish mumkin. Bekobod tumani 1926-yilda tashkil etilgan bo‘lib, 1963-yilda tugatilgan, 1964-yilga kelib qayta tashkil etilgan. Xususan, tumanning ma‘muriy chegarasi doirasida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli hamda 2009-yil 13-martdagi 68-sonli qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda tuman markazi Zafar, shuningdek, Bobur, Xos, Ko‘rkam, Yangibozor shaharchalari va 12 ta qishloq hududi chegaralarini yangidan shakllantirish bo‘yicha (6-rasm) takliflar ishlab chiqildi.



6-rasm. Toshkent viloyati Bekobod tumani ma‘muriy chegarasining xaritasi.

Tadqiqot jarayonida Bekobod tumani hududi bo‘yicha o‘tkazilgan yer-xatlov ishlarning natijasiga ko‘ra 417 gektar sug‘oriladigan ekin yerlarining ortiqligi

aniqlangan. 2022-yil 1-yanvar holati ko‘ra yer hisobini yuritish aniqligi samaradorligi quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (2-jadval).

2-jadval

Bekobod tumanida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida tumanning jami sug‘oriladigan ekin yer maydonlari bo‘yicha qiyosiy jadval

Ko‘rsatkichlar nomi		Amaldagi ko‘rsatkichlari	Taklif qilinayotgan ko‘rsatkichlari	Erishiladigan ko‘rsatkichlar	
Jami maydon		39335,4	39752,8	+ 417,4	
1 yillik soliq tushumi	Paxta	100090252729,73	100090314753,91	62 024,19 ming so‘m	
	G‘alla		100090370703,96	117 974,23 ming so‘m	
	Bog‘		100090428386,34	175 656,66 ming so‘m	
	Uzum		100090472853,47	220 123,74 ming so‘m	
	Sholi		100090505910,80	253181,08 ming so‘m	
	Sabzavot		100090529867,54	277 137,81 ming so‘m	
	Ozuqabop ekinlar		100090429691,08	176 961,35 ming so‘m	
Yalpi hosildorlik	Paxta		1252,27 tn	1252,27 tn	12 523 mln. so‘m
	G‘alla		1878,34 tn	1878,34 tn	6 573 mln. so‘m
	Bog‘		1878,34 tn	1878,34 tn	3 126 720 ming so‘m
	Sabzavot		7513,36 tn	7513,36 tn	4 222 988 ming so‘m
	Ozuqabop ekinlar		21705,27 tn	21705,27 tn	3 341 580 ming so‘m

2-jadvalda keltirilganidek, olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan Bekobod tumani bo‘yicha (paxta-g‘allachilikda) olinishi mumkin bo‘lgan 12,52 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish mumkin bo‘lar edi. Shuningdek, aniqlangan sug‘oriladigan yer maydoni hisobidan undiriladigan yer solig‘i qiymati 118 mln. so‘mni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlarni o‘rtacha deb qabul qilgan holda, viloyatning amaldagi tumanlari bo‘yicha ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa yuqoridagi ko‘rsatkichlar yana 14 barobarga, ya‘ni mahsulot yetishtirish 175,32 mlrd so‘m, yer solig‘i 1,65 mlrd so‘mga ortishi mumkinligi aniqlangan.

XULOSALAR

1. «Energiyaning saqlanish va aylanish qonuni»ga muvofiq «tabiatdagi har qanday berk tizimda energiya yo‘qdan bor bo‘lmaydi va yo‘qolib ketmaydi, faqat bir turdan ikkinchi turga aylanib turadi» degan qoida misolida ma‘muriy-hududiy birliklarning umumiy yer maydoni miqdor jihatdan o‘zgarmasligi, balki ular toifadan toifaga yoki turdan turga o‘tishi nazariy jihatdan o‘z isbotini topdi.

2. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi toifalaridan foydalanish maqsadi va xususiyatlariga ko‘ra ularni tarkibiy jihatdan maqbullashtirish hisobiga yer fondi toifalari sonini amaldagi 8 tadan 6 taga keltirish, bunda ilk bor, yer toifasining 11 ta yer turlari (ekin yerlar, ko‘p yillik daraxtzorlar bilan band bo‘lgan, pichanzorlar, yaylovlar, tomorqa, o‘rmonlar bilan band bo‘lgan, suv ostidagi, yo‘l ostidagi, umumiy foydalanishdagi ko‘chalar va maydonlar ostidagi, qurilishlar ostidagi va boshqa yerlar) bo‘yicha har birini alohida tavsiflash orqali ularga

huquqiy maqom berilishi asoslandi. Bu esa respublikamizda yer munosabatlarini tartibga solishda xizmat qiladi.

3. Shu kunga qadar ma'muriy-hududiy birliklarning quyi pog'onasi hisoblanadigan tumanlarning ma'muriy chegarasi doirasida birliklar hududini belgilash ishlari to'liq yakunlanmagan. Bu borada tadqiqotlarda pilot uchastka sifatida tanlangan Toshkent viloyati Bekobod tumanining amaldagi ma'muriy chegarasi WGS-84 tizimiga bog'lagan holda o'rganilganda, tuman umumiy maydoni 165 gektarga farq qilishi aniqlandi. Shuningdek, tumanning ma'muriy hududi doirasida 5 ta shaharcha va 12 ta qishloqlar hududi chegarasini belgilandi. Demak, WGS-84 tizimi asosida respublikamizning barcha tumanlarining ma'muriy chegarasidagi tumanga bo'ysunuvchi shahar, shaharcha, qishloq (ovul)lar hududlarining chegaralarini belgilash ishlarini to'liq yakunlash lozimligini ko'rsatadi.

4. Amaliyotda yangidan yoki qaytadan o'zlashtirilgan yerlarni foydalanishga qabul qilish jarayonida yer turlari transformatsiyaga uchraydi. Bunda, har bir transformatsiyaga uchragan yangidan yoki qaytadan o'zlashtirilgan yer maydonlarini Qishloq xo'jaligi vazirligining xulosasiga muvofiq viloyat(lar) hokimining tegishli qarori bilan qabul qilish mexanizmini joriy qilish lozim.

5. Tuman (shahar)lar ma'muriy chegarasidagi mavjud yer maydonlarida o'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, yer balansiga nisbatan farqlar aniqlandi. Qayd qilingan farqlarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan «Xatlov natijasi», «Ishchi guruh muhokamasi», «Yerdan foydalanuvchilar bo'yicha xulosa qilish», «O'zgarishlarni bayonnoma bilan tasdiqlash», «Yer balansiga qabul qilish» ketma-ketligi mexanizmi asosida ish yuritish maqsadga muvofiq.

6. Yer hisobini yuritish natijalarining aniqligini oshirish yuzasidan quyidagilar tavsiya etiladi:

- amaldagi tuman (shahar) yer balansi shaklidan «bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari»ni yer turidan chiqarilgan holda ularni yerdan foydalanuvchi sifatida yer hisobini yuritish;

- «bo'z yerlar» va «meliorativ qurilish bosqichidagi yerlar»ning foydalanish xususiyatiga ko'ra ularning hisobini «ekin yerlar» tarkibida yuritish;

- yerlarning suv bilan ta'minlanishidan kelib chiqqan holda ularni konturlar kesimida sug'oriladigan, shartli sug'oriladigan va lalmi yerlar bo'yicha tabaqalashtirgan holda hisobini yuritish;

- tomorqa yerlarni qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tarkibidan chiqqan holda aholi punktlarining yerlari tarkibida hisobga olish;

- dehqon xo'jaliklari hamda xususiylashtiriladigan yer uchastkalari hisobini yuritish;

- yer balansi shakllaridagi yer turlarining nomlanishini tartibga solish;

- qishloq xo'jaligi korxonalarini yerlari hamda noqishloq xo'jaligi ehtiyojlariga uchun ajratilgan yerlar hisobotini takomillashtirish;

- yangidan va qaytadan o'zlashtirilgan yerlar hisobini yer turlari transformatsiyasidan kelib chiqqan holda tashkil etish.

7. Yer hisobini yuritish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ma'lumotlar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqarish amaliyotidan tashqari Oliy o'quv yurtlarida ilmiy hamda o'quv jarayonida «Yer tuzish», «Yer tuzishni loyihalash», «Yer kadastri» va «Yer monitoringi» kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda joriy qilish va undan keng foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) НА БАЗЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА № DSc05/04.03.2022.Qx.13.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАУЧНО-ПРОЕКТНЫЙ ИНСТИТУТ
«УЗГИПРОЗЕМ»**

ХОЖИЕВ КУЧКОР МАМАДИЁРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВЕДЕНИЯ УЧЕТА
ЗЕМЛИ (на примере Ташкентской области)**

06.01.10 - «Землеустройство, кадастр и мониторинг земель»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером № B2022.1.PhD/Qx868.

Диссертационная работа доктора философии (PhD) выполнена в государственном научно-проектном институте «Узгипрозем».

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Бабаджанов Аллаберган Рузимович
кандидат экономических наук, доцент

Официальные оппоненты: Курвантоев Рахмонтой
доктор сельскохозяйственных наук, профессор
Хужакелдиев Комил Насирович
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация: Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Защита диссертационной работы доктора философии (PhD) состоится на заседании разового научного совета по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) на базе Научного совета № DSc 05/04.03.2022.Qx.13.01 при Ташкентском государственном аграрном университете, от « 30 » 08 20 23 года в 9⁰⁰ часов. (Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, №2. Тел.: (+99871) 260-48-00, факс: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz

С диссертационной работой доктора философии (PhD) можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрированном за номером № 549157). Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, №2, Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации роздан « 15 » 08 2023 года.

(Реестр протокола за № 1 от « 15 » 08 2023 года).



Г.Р.Холмуродова

Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

А.А.Иминов

Членский секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

У.Норкулов

Председатель научного семинара при разовом научном совете по присуждению ученых степеней, д.с.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. По сравнению с 1980 годом, к 2018 году площадь посевных земель на душу населения земного шара уменьшилась на 0,10 га и достигла 0,20 га. И в нашей стране площадь орошаемых земель на душу населения за последние 20 лет уменьшилась с 0,23 га до 0,12 га¹. Поскольку земли сельскохозяйственного назначения являются основным средством производства сельскохозяйственной продукции и обеспечения продовольственной безопасности, требуется налаживание их эффективного использования и охрану, а также ведения количественного учета земельных площадей. В связи с этим важное значение имеет вопрос совершенствования методологии ведения учета земель при рациональном и эффективном использовании земельных ресурсов в соответствии с его назначением, при регулировании земельных отношений.

В мире проводятся научно-практические исследования по совершенствованию методов ведения учета земель, в частности количественного учета земель сельскохозяйственного назначения на основе существующих инновационных подходов. В этом аспекте особое внимание уделяется исследованиям, направленным на создание системы, отражающей достоверность и точность ведения учета земли на основе использования подходов и механизмов, положительно влияющих на результаты количественного учета орошаемых сельскохозяйственных угодий. Особенно, правильное толкование принятых документов земельного учета по категориям земельного фонда и видам земель, позволяющих обеспечить достоверность и прозрачность ведения земельного учета, земельного баланса, составляемого по годовому результату земельного учета и фундаментальное совершенствование его отчетов является одной из важнейших задач.

В нашей республике осуществлен широкий комплекс мер по совершенствованию земельных отношений, землеустройству, земельного кадастра и мониторинга земель в соответствии с условиями современной рыночной экономики, в частности, по обеспечению целевого и эффективного использования земель в агропромышленном комплексе, и были достигнуты определенные положительные результаты. Все это, прежде всего, неразрывно связано с совершенным и достоверным ведением учета земель. В частности, в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы «...освоение 464 тысяч гектаров новых и вышедших из оборота земельных площадей, совершенствование системы оказания агроуслуг, основанных на передовых достижениях науки и инновациях. Обеспечение агропромышленных предприятий сырьем и увеличение объемов производства в 1,5 раза» определены как важные стратегические задачи. С этой точки зрения совершенствование методологии учета земель является сегодня одной из важных приоритетных задач.

¹ <https://daryo.uz/k/2022/04/12/ozbekistonda-doimiy-aholi-soni>

Исследование данной диссертации в определенной степени служит реализации первоочередных приоритетных задач, определенных в «Концепции эффективного использования земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве», утвержденной Указом Президента Республики Узбекистан №УП-5742 от 17 июня 2019 года² «О мерах по эффективному использованию земельных и водных ресурсов в сельском хозяйстве» и в Указе Президента № УП-6061 от 7 сентября 2020 года³ «О мерах по коренному совершенствованию системы ведения учета земель и государственного кадастра» и других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды».

